

**MATNLARNI AVTOMATIK HISSIY TAHLILI UCHUN HIS-TUYG‘U
LEKSIKASINI QURISH
СОЗДАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ЛЕКСИКОНА ДЛЯ
АВТОМАТИЧЕСКОГО СЕНТИМЕНТАЛЬНОГО АНАЛИЗА ТЕКСТОВ
BUILDING AN EMOTION LEXICON FOR AUTOMATIC SENTIMENTAL
ANALYSIS OF TEXTS**

Allanazarova Sabohat Yusupboyevna

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

allanazarova.sabosh@gmail.com

Hozirgi kunda katta hajmli ma’lumotlar bilan avtomatik ishlashda, xususan, matnlarni avtomatik hissiy tahlil qilish sohasida turli qiyinchiliklar mavjud. Buning asosiy sababi O‘zbek tilidagi matnlarni hissiy jihatdan tahlil qilishda qo‘llaniladigan lingvistik ta’minot manbalarining ishlab chiqilmaganli hisoblanadi. Uchbu ishda biz mazkur sohadagi tahlilda foydalanish mumkin bo‘lgan lingvistik ta’minot va unga manba sifatida olinadigan birliklar haqida so‘z yuritamiz.

Matnlarda ifodalangan hissiy baho(tuyg‘u, munosabat)ni aniqlashda keng miqyosli va yaxshi qurilgan hissiyotlar leksikasi foydali hisoblanadi. Bunday korpuslar odatda lug‘atlardan yoki ma’lum sohaga xos so‘zlardan foydalanib ishlab chiqiladi. Matnni ijobiy, salbiy yoki betaraf baholi deb topish uchun shunday mazmun ifodalovchi birliklar kiritiladi.

Baho subyekti deganda, ma’lum predmetni o‘z nuqtayi nazaridan yoki boshqa predmetga qiyosan baholovchi shaxs tushuniladi. Har qanday shaxsning dunyoqarashi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatda egallagan mavqeyidan kelib chiqadigan o‘z fikri bo‘ladi (Berezin F.M., Golovin B.N. 1979. –379). Shaxs bahosi individual xususiyat kasb etishi yoki umumlashgan bo‘lishi mumkin. Obyekt bahosi ifodalanayotgan narsa, uning ma’lum holatda, vaqtda tutgan o‘rni asosida baholanadi. Obyekt bahosi narsaning qiymati sanaladi. Masalan: **O‘zbek oshxonalari chindan ham ovqatlarining shirinligi, takrorlanmas ta’mi bilan ajralib turadi.** Ushbu gapda o‘zbek oshxonalari, ovqatlari-obyekt, uning shirinligi, takrorlanmas ta’mi-

xususiyati, bahosi hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, xususiyat predmetning qanday ekanini ifoda etadi va o‘sha xususiyat orqali predmatning bahosi aniqlanadi.

Baho ma‘nosi predmet yoki harakatning belgi (keng ma‘noda qiymat) munosabatini ifoda etgani uchun ko‘p holda sifatlar va ravishlar baho ma‘nosini tashuvchi so‘zlar hisoblanadi. Hissiy baho ifodalovchi sifatlarni ko‘rib chiqaylik. Bunda asosan xususiyat sifatlari (fact adjectives) va fikr sifatlari (opinion adjectives) uchraydi. **Kalta, yumaloq, uzun, baland, uzoq** kabi sifatlar xususiyatni ifodalaydi va kontekstga bog‘liq qutbliligini o‘zgartirishi mumkin. Masalan:

1) Restoranga kirish uchun uzoq tirbandlikda turdik. Uzoq so‘zi salbiy ma‘no ifodalovchi tirbandlik so‘zi ta‘sirini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

2) Apple telefonlarining quvvati uzoq turadi. Bu gap tarkibida ijobiy baho ifodalab kelgan.

Chiroyli, qimmat, ajoyib, zerikarli, yoqimli kabilar fikr sifatlari hisoblanadi va gap tarkibida o‘zi ifodalagan ma‘nosini o‘zgartirmaydi (kinoyaviy gaplar bundan mustasno). Gap tarkibida avval fikr sifatlari, keyin xususiyat sifatlari keladi.

Frazeologizmlar ham munosabat bildirishda faol ishtirok etadi. Frazeologizmlar subyektiv bahoni yorqin ifodalab beradi. Masalan: **“mulla mingan eshakday”**, **“qovun tushurmoq”**, **“ilonni yog‘ini yalagan”** frazeologizmlari subyektning bahosini odatdagidan kuchliroq ifoda etish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy saytlardagi matn (sharh)larni tahlil qilish jarayonida haqorat so‘zlarining ko‘p uchrashiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu jihatdan haqorat ifodalovchi birliklarni maxsus o‘rganish va darajalashni (o‘ta haqoratli, o‘rtacha haqorat, haqoratomuz) talab qiladi. Salbiy ma‘no ifodalovchi birliklar qatoriga qarg‘ishlarni ham qo‘shish mumkin. Bunday birliklar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari nutqida faol qo‘llaniladi: **bo‘ying uzulgur, ko‘zi teshilsin, qurib ketkur.**

Ijobiy ma‘no ifodalovchi birliklar sifatida olqishlar, duo iboralari, maqollar, so‘z-gap shaklidagi **yashang, xormang** kabi undov gaplarni, istak ma‘nosini ifodalovchi birliklarni keltirish mumkin. Bunday birliklarning umumlashtiruvchi

xususiyati shundan iboratki, ularning barchasida soʻzlovchining oʻziga yoki boshqalarga nisbatan aytilgan ijobiy istagi mazmuni ifodalanadi.

Toʻy va tugʻilgan kunda aytiladigan, muborakbod etish mazmunini bildiruvchi ijobiy istak birliklari: **toʻylar muborak!** Biz sizga **uzoq umr, sogʻliq-salomatlik**, ishlaringizda **yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz** (Soʻzlashuvdan). Ijobiy istakni ifodalovchi birliklar frazema shaklida qoʻllanganda yoki ularning tarkibida frazemalar qatnashganda, bunday birliklar ham mazmunan, ham uslubiy jihatdan taʼsirchanlikka ega boʻladi (Yoʻldoshev B. 1998. 27-82 b).

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar leksikasiga xos xususiyatlardan biri ularda oʻzbek xalqining diniy eʼtiqodi hamda etiketi bilan bogʻliq boʻlgan antroponimlarning qoʻllanishidir. Bunday nomlar qatoriga Alloh, Hazrat Ali, Hazrati Nux, Hazrati Bahovaddin, Hazrati Dovud, Imomi Aʼzam, Luqmoni Hakim, Bobo Dehqon, Bibi Fotima, kabi nomlar kiradi. Bunday birliklar tarkibida, shuningdek, qilgan duolarimiz ijobat boʻlsin maʼnosini bildiruvchi **Omin** soʻzi, —Alloh ulugʻdir maʼnosini bildiruvchi Alloxu akbar soʻzi birikmasi va eski oʻzbek tilida —Xudo, Alloh maʼnosi bilan murojat birligi sifatida qoʻllangan. Hozirda esa mazmunan yuklamaga yaqinlashgan ilohim (ilohi, iloyo) soʻzlari faol ishlatiladi (Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh. 1973. –289 b.).

Soʻzlarning qutbliligini hisoblashda inkorlar muhim ahamiyat kasb etadi (Kennedy et al., 2006). Sababi ijobiy baho ifodalovchi soʻzga qoʻshilgan inkor shakl maʼnoni salbiyga, aksincha salbiy maʼno ifodalovchiga esa ijobiy baho beradi. Buni quyidagi misollar orqali koʻrish mumkin:

1. Bu film ajoyib emas (salbiy)
2. Mahsulot narxi qimmat emas (ijobiy)

Kuchli ijobiy soʻzga inkor shakli qoʻshilganda biroz salbiylik kasb etadi, chunki kuchli ijobiy salbiyga aylantirish oson emas.

Film **yaxshi emas** (salbiy) ← ~~Film juda yaxshi emas~~ (biroz salbiy)

Axborot asrida internetda mavjud boʻlgan koʻplab matnlarni oʻrganish juda muhim boʻlib qoldi. Bu esa soha mutaxassislaridan matnlarni tahlil qiladigan

ma'lumotlar manbalarini ishlab chiqish zaruratini qo'yadi. O'zbek tilidagi duolar, olqishlar, xalq maqollari, iboralarda ijobiy istak mazmuni ham ifodalanadi. Ayniqsa, bu xususiyat duoar, olqishlar hamda muomalada qo'llanuvchi nutqiy etiketlar mazmuniga xosdir. Bu esa bunday til birliklarini-ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklari nomi ostida o'rganishga imkon beradi. Tuzilish xususiyatiga ko'ra ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning o'ziga xos tomonlari mavjud. Ular so'z birikmasidan, bir gapdan tuzilganidek, bir necha gaplarning birikuvidan ham tuzilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Березин Ф.М., Головин Б.Н. *Общее языкознание*. –М.: Просвещение, 1979. –с.379
2. Yo'ldoshev B. *Frazeologiya terminidan lavhalar*. –Samarqand: Sug'diyona, 1998. 27-82 b
3. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. *O'zbek tilining tarixiy grammatikasi*. –T.: O'qituvchi, 1973. –289 b.
4. Kennedy, A. and Inkpen, D., 2006. Sentiment classification of movie reviews using contextual valence shifters. *Computational intelligence*, 22(2), pp.110-125.
5. Stefano Baccianella, Andrea Esuli, and Fabrizio Sebastiani. SentiWordNet 3.0: An enhanced lexical resource for sentiment analysis and opinion mining. In *Proc. of LREC*, 2010.
6. Wilson, T., Wiebe, J. and Hoffmann, P. 2005. Recognizing contextual polarity in phrase level sentiment analysis. In *Proceedings of the conference on human language technology and empirical methods in natural language processing*, Association for Computational Linguistics, Vancouver, B.C., Canada, pp. 347–54.